



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 10-dekabr, chorshanba,
140 (24.170)-son

O'zbek xalq
maqoli

Yo'ldan
chiqsang -
chiq, eldan
chiqma

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



FAROVONLIK VA TARAQQIYOT ASOSI

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
qabul qilinganligining 33 yilligiga
bag'ishlangan asosiy bayram tadbirlari
6-dekabr kuni Samarqand shahridagi
Alisher Navoiy ko'chasida tashkil etilgan
ko'rgazma namoyishi bilan boshlandi.
Shu kuni ushbu ko'cha "Konstitutsiya
ko'chasi" sifatida namoyon bo'ldi.**

Viloyat hokimi Adiz Boboyev boshchiligidagi viloyat rahbarlari, deputatlar, faollar va jamoatchilik vakillari Konstitutsiyaning ahamiyati, undagi inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan normalar haqida ma'lumotlar joylashtirilgan ko'rgazma bilan tanishdi.

Tadbir davomida ilk bor pasport olayotgan yoshlarga fuqarolik pasportlari topshirildi.

Bayram munosabati bilan Samarqand shahridagi "Maroqand" konsert zalida tantanali tadbir o'tkazildi. Unda viloyat faollari, hokimlik va huquq-tartibot organlari xodimlari, harbiylar, nuroniylar va yoshlar vakillari ishtirok etdi.

Viloyat rahbari tadbir qatnashchilari va ular tim-solida barcha samarqandliklarni qutlug' sana bilan

tabriklab, viloyatimizning iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlari va kelgusi rejalarga to'xtaldi.

Ta'kidlanishicha, joriy yil 9 oy yakuni bilan viloyatimizning yalpi hududiy mahsuloti hajmi 87,5 trillion so'mni yoki o'sish sur'ati 107,7 foizni tashkil etdi. Bunda sanoat hajmi 7,8 foizga, qishloq xo'jaligi 3,9 foizga, xizmatlar hajmi 14,1 foizga va qurilish ishlari hajmi 22 foizga o'sishi ta'minlandi. Iqtisodiyotning turli sohalari-da amalga oshirilayotgan loyihalar hisobiga 1,9 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirildi. Shuningdek, qiymati 656 million dollarlik 18 ta yirik va ahamiyatli loyiha amalga oshirilmogda.

Hududiy investitsiya dasturi doirasida qiymati 954,2 million dollarlik 770 ta loyihani amalga oshirish hisobiga 14765 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratilgani aytiladi.

- Umuman, erishayotgan bu kabi yutuqlarimiz, tinch va osuda hayotimiz, iqtisodiy rivojlanish hamda xalqimiz farovonligi Konstitutsiyamiz va u asosida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasidir, - dedi viloyat rahbari.

Tadbir samarqandlik taniqli san'atkorlar va yosh ijrochilar ishtirokida konsert dasturi bilan davom etdi.

**To'liq SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).**

HAR BIR TIZIM KORRUPSIYADAN XOLI BO'LISHI KERAK

9-dekabr – Xalkaro korruptsiyaga qarshi kurash kuni munosabati bilan "Samarqand aeroporti" chegara bojxona postida bojxona organlarida korruptsiyaga qarshi kurash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbir tashkil etildi.

Unda viloyat bojxona boshqarmasi mas'ullari va xodimlari hamda ularning yaqinlari ishtirok etdi.

Viloyat bojxona boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari Anvar Muhammadiyevning qayd etishicha, bugungi kunda bojxona xizmatlarining asosiy qismi raqamlashtirilgan bo'lib, aksariyat xizmatlar inson omilisiz bajarilmoqda. Shuningdek, tadbir davomida xodimlarning noqonuniy xatti-harakatlari bilan bog'liq ayrim salbiy holatlar tahlil qilinib, ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar muhokama etildi.



Viloyat qon quyish stansiyasida xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan



o'tkazilgan targ'ibot tadbirida sog'liqni saqlash tizimida korruptsiyaning oldini olish va ochiqlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z yuritildi. Tibbiy xizmatlarni raqamlashtirish, xususan DMED tizimining joriy etilishi sohada shaffoflikni ta'minlash va inson omilini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etgani ta'kidlandi.

Viloyat soliq boshqarmasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 33 yilligi hamda xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan tadbir tashkil etildi.

Boshqarma boshlig'i Farrux Boboyev Bosh Qomusimiz erishgan va erishayotgan barcha yutuq va marralarimizning mustahkam huquqiy poydevori ekanligini ta'kidlab, sohada halol mehnati, natijalari bilan o'rnatilgan bir qator xodimlarni e'tirof etdi.

MUKOFOTLAR MUBORAK!

Prezidentimiz "Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan soha rivojiga munosib hissa qo'shgan yurtodoshlarimizdan bir guruhini mukofotlash to'g'risida" Farmon qabul qildi.

Farmonga ko'ra, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tizimidagi ko'p yillik fidokorona mehnati bilan soha rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan bir guruh yurtodoshlarimiz faxriy unvonlar va davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Mukofotlanganlar orasida samarqandliklar ham bor:

«MEHNAT SHUHRATI» ordeni bilan

Xolmirzayev Do'stmuhammad - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining yaylov chorvachiligi, qorako'chilik, asalarichilik va ipakchilik kafedrasida professori.

«DO'STLIK» ordeni bilan

Abdulazizov Obloqul - «Mirza-Pay» irrigatsiya tizimi boshqarmasi kanallari katta muhandis-gidrotexnigi.

«JASORAT» medali bilan

Suvonov Nurmuhammad Bobomuradovich - Paxtachi tumanidagi «Mirzayev Shuhrat Kenjayevich» fermer xo'jaligining g'alla o'rish kombayni operatori.

«SHUHRAT» medali bilan

Qodirov Mehroj Usmonovich - Samarqand tumanidagi shaxsiy tomorqa yer egasi;

Muxtorova Jamila Shukurovna - Jomboy tumanidagi «Jomboy agropilla» mas'uliyati cheklangan jamiyati pillachisi;

Rizonov Azimxon Xolovich - Kattaqo'rg'on tumanidagi «Azimxon Rizonov» ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi boshlig'i;

Sherov Erkin Kurbanovich - Past Darg'om tumanidagi «Eldor» chorvachilik fermer xo'jaligi boshlig'i.

TAYINLOV

Ahmedov Akmal Shomuradovich - O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi.

A.Ahmedov Urgut tumanidagi "Sam-Ferre" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi hisoblanadi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shu yilning 25-noyabr kuni Samarqandga tashrifi chog'ida mazkur korxonada bo'lib, bu yerdagi ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishgan, tadbirkorlar bilan suhbatlashgandi.



Atmosferaning yomonlashuvida issiqxonalarning ham ta'siri katta. Chunki so'nggi paytda issiqxonalarni isitish uchun turli rezina, eskirgan transport shinalari va boshqa vositalar yoqilmoqda. Ammo aksariyatida zamonaviy filtrlar o'rnatilmagan. O'tkazilayotgan reydlar va monitoringlarda bunday holatlar aniqlanib, ularga chek qo'yilmoqda.

Ikki yil ilgari ko'p gaz sarflovchi yirik korxona va tashkilotlar, jumladan, issiqxonalarning ham ko'mirdan foydalanishi talab qilingan edi.

Bugungi kunda tabiiy gazdan foydalanish uchun «Hududgaz Samarqand» gaz ta'minoti filiali bilan shartnoma tuzgan issiqxonalarning soni 75 tani tashkil qiladi.

- O'tgan yili viloyat bo'yicha 86 ta issiqxonaga tabiiy gaz berilgandi, - deydi «Hududgaz Samarqand» gaz ta'minoti filiali direktori o'rinbosari Salohiddin Mallaev. - Joriy yilda ularning soni 75 tani tashkil etmoqda. Ularning ko'pchiligi yilning issiq paytida tabiiy gazga ehtiyoj bo'lmagan vaqtda faoliyat ko'rsatmoqda. Endi sovuq tushishi bilan tadbirkorlar kelib, gaz tarmoqlariga ulanishni so'rayapti. Agar issiqxonalarning texnik talablariga javob bergan holda ruxsatnoma olsa, zudlik bilan tarmoqqa ulanmoqda.

«Hududgaz Samarqand» gaz ta'minoti filiali Samarqand tumani bo'limi bilan shartnoma tuzgan 5 ta issiqxonada joriy yil hisobidan biror marta tabiiy gazdan uzilish bo'lgani yo'q. Jumladan, tumanning Chumchuqli mahallasi-dagi «Ikromjon olma bog'lar» MChJga qarashli 5 gektarlik issiqxona uch yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

- Tabiiy gazga moslashgan tizim orqali 2 gektar maydonda o'n turdagi ziyod gul ko'chatlari yetishtiryapmiz, - deydi korxona agronomi Akmal Raimjonov. - Ikki yil ilgari tabiiy gazdan uzilgach, samaradorlik pasayib, tuzilgan shartnomalarimizni bajara olmay qoldik. Ko'p iqtisodiy zarar ko'rdik. 2024-yilda yana tabiiy gaz tarmoqlariga ulanishga ruxsat berilgach, faoliyatimiz rivojlandi. Ayniqsa, Prezidentimizning 2025-yil 8-oktabrdagi «Issiqxona xo'jaliklari faoliyati

Issiqxonalarga tabiiy gaz berilyapti

Kun mavzusi



Bunda ham ayrim talablar bor



samaradorligini oshirish va eksport hajmini ko'paytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni ishini kengaytirishga turtki bo'ldi. Endi pomidor, bodring, turli xil ko'katlar yetishtirmoqchimiz. Hozirda yer maydonlarini tayyorlab, urug' ekishga hozirlab qo'yganmiz.

Tumandagi «Karvon fayz» MChJga qarashli 1,5 gektarlik issiqxona ham tabiiy gaz bilan isitiladi va yiliga 30 tonnagacha pomidor, bodring yetishtiriladi.

- «Hududgaz Samarqand» gaz ta'minoti filiali tuman bo'limi bilan tuzilgan shartnoma asosida uzluksiz tabiiy gaz bilan ta'minlanganmiz, - deydi korxona ish boshqaruvchisi Rafiq Karimov. - Xorijdan olib kelingan zamonaviy isitish tizimlari gazni iqtisod qilishga yordam berayпти. Shunday bo'lsa-da, dizel yoqilg'isi bilan ishlaydigan qo'shimcha pechlarimiz ham tayyor turibdi. Agar gaz bosimi pasayib ketsa, darrov ishga solamiz. Lekin hozircha bunday holat bo'lgani yo'q.

Tuman gaz korxonasi mutaxassislari barcha issiqxonalarning texnik holati, tarmoqlarni o'rganib, yetarli miqdordagi gaz yetkazib bermoqda.

- Issiqxonalarning faoliyatini davlat tomonidan

qo'llab-quvvatlash yaxshi samara bermoqda, - deydi «Hududgaz Samarqand» gaz ta'minoti filiali tuman bo'limi yetakchi muhandisi Orifjon Narziqulov. - Ular uchun gaz yetkazib berishda hech qanday cheklov yo'q. Ya'ni, issiqxona egalari belgilangan to'lovlarini amalga oshirgan holda tabiiy gazdan foydalanish imkoniyatiga ega. Oktabr, noyabr va dekabr oylarida issiqxonalarning egalari gaz uchun avvalgi 100 foiz o'rni, 50 foizlik oldindan to'lovni amalga oshirishga ruxsat berilgan.

Shuningdek, ular elektr va gaz uzilishlari haqida oldindan xabardor qilinadi.

2026-yil 1-yanvardan 2028-yil yakuniga qadar issiqxonalarning uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilanadi. Ularni tabiiy gaz bilan kafolatli ta'minlagan holda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish va eksporti hajmini 30 foizdan 70 foizga oshirish hamda kelgusi yildan ularning yer maydonlarini ham ko'paytirish ko'zda tutilgan.

Tabiiy resurslarga talab yildan yilga oshayпти. Sovuq paytda tarmoqqa katta yuklama tushib, gaz bosimi pasayib ketishi mumkin. Shuning uchun ham ta'minotchi bilan tuzilgan shartnomada har bir tadbirkorning o'z xazira yoqilg'isi bo'lishi kerak degan band bor. Texnik shartning o'zida ham ta'minot-chining qishda gaz yetkazib berolmasligi mumkinligi qayd etilgan. Gaz uzildimi, tadbirkor muqobil yoqilg'iga o'tishi kerak. Shunda ham issiqxonadan foydalanilayotgan pech va isitish vositalaridan chiqayotgan zaharli gazlar atrof-muhitga zarar yetkazmasligi zarur. Buning uchun esa ular tozalash uskunalari o'rnatishi talab qilinadi.

**Dilmurod TO'XTAYEV,
"Zarafshon" muxbiri.**

Markaziy harbiy okrugning Samarqanddagi ma'naviyat va ma'rifat markazida Oliy Majlis Senati a'zolari hamda faol yoshlar ishtirokida yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda ularni qiynayotgan muammolarga yechim topishga bag'ishlangan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Senatorlar yoshlar bilan uchrashdi

Unda Senatning budjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi a'zosi Shavkat Sharipov hamda mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi a'zosi Maryam Niyozaeva, shuningdek, Yoshlar parlamenti a'zolari, viloyatdagi korxona va tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan yoshlar hamda talabalar qatnashdi.

Uchrashuvning asosiy maqsadi yoshlar-da davlat siyosatining mazmun-mohiyati, amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari, imkoniyat va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari borasida to'laqonli tasavvur hosil qilish, ularning fikr-mulohazalarini esh-itish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratildi.

Sh.Sharipov yoshlar masalasi mam-lakatimizda ustuvor yo'nalishlardan biri ekani, yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik ruhini mustahkamlash, ularning faol ijtimoiy pozitsi-yasini qo'llab-quvvatlash va sohaviy malakasiga e'tibor qaratish muhimligini ta'kidladi.

Uchrashuvda yoshlar uchun yangi im-koniyatlar va dasturlar haqida batafsil ma'lumot berildi. Xususan, viloyatda yosh tadbirkorlar uchun maxsus grantlar va moli-yaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari ishlab chiqilmoqda, oliy ta'lim muassasalari tala-balari uchun stajirovka va malaka oshirish loyihalari kengaytirilmoqda. Yoshlar parla-menti va mahalliy hokimliklar hamkorligida ijtimoiy loyihalar, sport va madaniy tadbirlar tashkil etiladi. Mahalliy startaplar va inno-vatsion laboratoriyalar yoshlar uchun ish-bilarmonlik va ilmiy-amaliy tajriba orttirish imkonini beradi.

Uchrashuv so'ngida senatorlar yoshlar-ning murojaatlari va takliflari tinglab, har bir masala bo'yicha batafsil tushuntirish berdilar va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

O'z muxbirimiz.

Prezidentimizning shu yil 8-oktabrda qabul qilingan qaroriga ko'ra, 2026-yilda viloyatimizning 32 ta mahallasiga "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla" maqomi berilib, mahallalarning har biriga 5 milliard so'mdan mablag' ajratilishi belgilangan. Bu orqali ushbu mahallalar aholining yaxshi yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga xizmat qiluvchi namunali maskanga aylantiriladi.

O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat bosh-qarmasi mas'uli Yusufjon Salimovning ta'kidlashicha, viloyatimizdagi shahar va tuman hokimliklaridagi "Is-lohotlar shtabi" a'zolari hamkorligida Yangi O'zbekis-ton qiyofasidagi mahalla sifatida viloyat bo'yicha 50 ta mahalla ro'yxati shakllantirilgan.

— Davlatimiz rahbarining "Alohida tuman va mahal-lalarni aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida tutash mahallalarni bog'lovchi markaz vazifasini bajaradigan, yirik avtomobil yo'llari yoki chegara hududlariga yaqin joylashgan, aholisi zich va ko'p, infratuzilmasi tadbir-korlikni rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar zarur bo'lgan hududlar tanlab olindi, — deydi Y.Salimov. — Shuningdek, mahallalarda savdo, servis va kichik ishlab chiqarish obyektlarining mavjudligi, bo'sh yer maydonlari yoki davlat mulki inshootlarining bo'lishi, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish va mikrosanoat markazlarini tashkil etish imkoniyatlari ham hisobga olingan. Bundan tashqari, shahar va tuman hokimlari tashabbusi bilan yana 18 ta og'ir toifadagi mahalla tanlanib, Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahallalar soni 50 ta etib belgilandi.

Hozirda ushbu mahallalarning muammolari, infratuzilmasi bilan bog'liq ehtiyojlari o'rganilib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha loyiha va dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ayni shu jarayon bilan tanishish maqsadida Bulung'ur tumanida bo'ldik.

O'zbekiston mahallalar uyushmasi Bulung'ur tuman bo'limi boshlig'i Hasan Egamberdiyevning ma'lum qilishicha, Prezident qaroriga asosan tu-manning Kildon va Zarafshon hamda tuman hokimi tashabbusi bilan Oqtpepa mahallalari Yangi O'zbekis-ton qiyofasidagi mahalla sifatida tanlanib, ularni "Taraqqiyot va yetakchilik" maskaniga aylantirish bo'yicha loyihalar ishlab chiqilgan.

— Tuman "Islohotlar shtabi" xodimlari hamkorligi-da 49 ta mahallaning infratuzilmasi, ishsizlik darajasi

BU FAKT!

Statistika boshqarmasiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar bo'yicha yetakchi o'rinni 177 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,5 foizini tashkil etdi.

Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissa qo'shayotgan mamlakatlar orasida Turkiya (17,1 %), Rossiya Federatsiyasi (15,8 %), Janubiy Koreya (4,5 %) va Tojikiston (3,4 %) ham alohida o'ringa ega.

Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla qanday bo'ladi?



va iqtisodiy imkoniyatlarini tahlil qilib, qarorda belgil-angan talablar asosida uchta mahalla ro'yxati shakl-lantirildi va har biriga 5 milliard so'mdan mablag' yo'naltirildi, — deydi H.Egamberdiyev. — Jumladan, to'rt mahalla markazida joylashgan Kildon mahal-lasida yangi mahalla binosi qurish, ichki yo'llarni asfaltlash, piyoda va salomatlik yo'laklarini barpo etish, elektr, ichimlik va sug'orish suv tarmoqlarini yaxshilash, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarini ken-gaytirish, o'quv markazlari va sanoat zonalarini tashkil etish rejalashtirilgan. Shu kabi loyihalar tumanning Zarafshon va Oqtpepa mahallalarida ham amalga oshiriladi va ayni paytda ishlar boshlangan. Loyiha-ning asosiy maqsadi tanlangan mahallalar va ular-ga qo'shni hududlarda aholini ish bilan ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish va mavjud imkoniyatlardan foydalanib, tadbirkorlikni rivojlantirishdir.

Tumanning Oqtpepa mahallasi tumanlararo yo'l bo'yida joylashgan bo'lib, Zarafshon, Qo'ng'iro't, Gulobod, Kaptarxona, Mingchinor va Qirgshodi mahallalari uchun markaz vazifasini o'tamoqda. Bu hududda o'ndan ortiq tadbirkorlik subyekti, dehqon, buyum va chorva bozorlari, shuningdek, turli xizmat ko'rsatish nuqtalari faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, ma-

halladagi uchta yirik bozorga nafaqat Bulung'ur, balki qo'shni Jomboy tumanidan ham aholi keladi. Bu esa mahalla aholisiga tadbirkorlikning turli yo'nalishlarini yo'lga qo'yish, qishloq xo'jaligi va sabzavot mahsu-lotlari yetishtirish va sotish orqali daromad topish imkoniyatini oshirmoqda.

— Hududda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarini kengaytirish uchun bo'sh binolar va maydonlar yetarli, — deydi Oqtpepa mahallasi raisi Muzrof Umarov. — Tumanimiz hoki-mining tashabbusi bilan mahallamiz "Yangi O'zbekis-ton qiyofasidagi mahalla" sifatida tanlanib, 5 milliard so'm mablag' ajratilmoqda. Ushbu loyiha doirasida savdo va servis, IT va o'quv markazlari, kafe-restoran hamda go'zallik salonlari faoliyati yo'lga qo'yiladi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkiloti qurili-shi, salomatlik yo'laklari tashkil etilishi, tungi yoritish chiroqlari o'rnatilishi va ichki yo'llarga asfalt yotqizi-lishi rejalashtirilgan. Eng muhimi, mazkur loyihalar amalga oshirilishi natijasida hududda tadbirkorlik salohiyati oshadi, yuzdan ziyod doimiy ish o'rni yara-tiladi, tumanning o'nga yaqin mahallasidagi 28 ming aholiga zamonaviy va qulay xizmatlar ko'rsatiladi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Plastikdan voz kechish payti kelgan

Dunyo bo'yicha har daqiqada bir millionga yaqin polietilen paket ishlatiladi, ularning aksariyati o'rtacha 25 daqiqadan so'ng chiqindi qutisiga tushadi. Turiga qarab bunday paketlarning parchalanishi 100 yildan 500 yilgacha davom etishi mumkin. Polietilen paketlar va boshqa plastmassa buyumlarning to'planishi atrof-muhitning mikroplastmassalar bilan ifloslanishiga olib keladi. Ular hayvonlarning oziq-ovqat zanjiriga kirishi va hatto insonlarning ichimlik suvigacha yetib borishi mumkin. Bu esa organizmda mikroplastmassalar to'planishi va zaharlanishni keltirib chiqaradi.

Olimlarning fikriga ko'ra, Yer sayyorasida har bir inson hafta davomida 5 gramm mikroplastik bo'laklarini iste'mol qiladi. Bu esa bank kartasining o'lchamiga teng. Dunyoda, xususan, O'zbekiston-da plastik chiqindilar bilan iflosla-nish ekologiya va ijtimoiy muammo sifatida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Plastik ifloslanish nafaqat umumbashariy ekologik muammo, balki inson salomatligi va iqtisodiy barqarorlik uchun ham jiddiy tahdid hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, plastikdan voz kechish va shisha kabi ekologik muqobil-larga o'tish nafaqat amaliy, balki strategik yechim hamdir.

Zamonaviy dunyoda plastik buyum va paketlardan butunlay voz kechish imkonsiz. Ammo undan foydalanishni minimallashtirishga erishish mumkin. Misol uchun, po-lietilen paket o'rniga uning muqobili — qog'oz qop, to'qilgan eko-sum-kalar, xarid uchun matodan tikilgan eko-paketlardan foydalansa bo'ladi.

Shahar va qishloqlarda shisha idishlarni qabul qilish konteynerlari, maxsus yig'ish xizmatlari va qayta ishlash korxonalarini tashkil etish va kengaytirish orqali shisha mahsulot-

lar aylanmasini kuchaytirish mumkin. O'zbekistonda Milliy plastik iflos-lanishini kamaytirish dasturi loyihasi ishlab chiqilmoqda. Unga ko'ra 2027-yilga qadar plastik paketlarni ishlab chiqarish, import qilish va foydalanishni taqiqlash taklif etil-gan. Shuningdek, bio-chiriydigan, ekologik xavfsiz muqobil material-lardan foydalanishni rag'batlantirish nazarda tutilgan.

O'zbekistonda plastik chiqin-dilarni kamaytirishga qaratilgan qonunchilik tashabbuslari doirasi-da Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi tomonidan yangi normativ-huquqiy hujjat ustida ish olib borilmoqda. Ushbu loyihada shisha idishlarni qayta ishlashni tashkil etish, maxsus qabul punkt-lari yaratish, utilizatsiya jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur texnik infratuzilmani rivojlantirish kabi chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Plastik paketlardan voz kechish yoki keskin kamaytirish atrof-muhit-ni yaxshilashga shaxsiy hissa bo'lishi mumkin. Hozirgi ifloslanish darajasi uchun har qanday hissa, hatto siz uchun ahamiyatsiz bo'lib tuyulgan harakat ham muhimdir.

A.YOQUBOV,
viloyat turizm boshqarmasi
bosh mutaxassisi.

Germaniya tajribasi asosida ijtimoiy tibbiy parvarish markazi faoliyati yo'lga qo'yildi

Samarqand shahrida ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning hayot sifatini yaxshilash maqsadida ko'p tarmoqli ijtimoiy tibbiy parvarish markazi ish boshladi. Samarqand shahar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi hamda Samarqand xalqaro salomatlik fanlari oliy maktabi hamkorligida tashkil etilgan muassasada yolg'iz keksalar, nogironligi bor hamda uzoq muddat parvarishga muhtoj shaxslarga uy sharoitida ijtimoiy-maishiy yordam, qarab turish, tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya, kunduzgi qatnov asosida qarab turish va shaxsiy yordamchi xizmatlar ko'rsatiladi.

— Xizmatlar haftasiga besh kun tashkil etilib, 40 nafar nogironligi bor fuqaro uchun mo'ljallangan, — deydi Abu Ali ibn Sino va Haynrix Shipperges nomidagi O'zbekiston-Germaniya xalqaro salomatlik fanlari oliy maktabi nodavlat ta'lim va ilmiy metodik muassasasi rektori Azamat Egamberdiyev. — Ushbu markaz muassasamiz tasarrufida tashkil etilgan bo'lib, O'zbekiston-Germaniya qo'shma loyihasi asosida nogironligi bo'lgan shaxslarning faol hayotga qay-tishi, jamiyatga integratsiya bo'lishi hamda psixologik-emotsional holatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Markazga keluvchi-lar yashash joyidan avtobusda bepul olib kelinadi va kechqurun yana manziliga yetkaziladi. Kun davomida 20 nafar xorijlik va mahalliy mutaxassis tomonidan reabilitatsiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlari, jismoniy mashqlar, madaniy-ma'rifiy va ko'ngil-ochar tadbirlar, to'g'ri ovqatlanish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar hamda fizioterapiya xizmatlari ko'rsatiladi. Shuningdek, 30 dan ziyod mutaxassislarimiz 355 nafar nogironligi bor va imkoniyati cheklangan fuqarolarning uyiga borib, ularga ijtimoiy-psixologik yordam beradi.

— Uch yil oldin operatsiyadan keyin yurolmay qolgandim, — dey-di Samarqand shahrida yashovchi Zulfiya Musaboyeva. — Ijtimoiy parvarish markaziga kelgach, sog'ligimda o'zgarishni va oyoqla-rimda harakatlarni his qilayman. Asosiysi, bu yerda nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-psixologik va jismoniy mashg'ulotlar bilan muolaja ko'rsatilayotgani menga manzur bo'ldi.

Samarqand shahridagi Abu Ali ibn Sino va Haynrix Shipperges



nomidagi O'zbekiston-Germaniya xalqaro salomatlik fanlari oliy maktabi o'tgan yil iyun oyida O'zbekistonning Ommaviy-huquqiy tadqiqotlar markazi hamda Germaniyaning Lyudvigsburg amaliy fanlar universiteti va Haymerer professional akademiyasi hamkor-ligida tashkil etilgan. Muassasaning asosiy maqsadi — sog'liqni saqlash sohasi uchun yuqori malakali tibbiyot xodimlari va boshqa-ruv kadrlarini tayyorlash bo'lib, ta'lim jarayonida o'zbek va nemis tibbiyot maktablarining ilg'or tajribalari hamda zamonaviy tex-nologiyalar qo'llanilmoqda.

— Ta'lim uch bosqich — nemis tili bo'yicha tayyorgarlik, uch yillik kasbiy ta'lim va bakalavriat hamda magistraturani o'z ichiga oladi, — deydi muassasa rektori A.Egamberdiyev. — Muassasa diplom-i-niing xalqaro tan olinishi bitiruvchilarga O'zbekiston, Germaniya va Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlarida ishlash imkoniyatini beradi. Hozirda loyihaning dastlabki bosqichi sifatida til o'rganish kursi va ijtimoiy tibbiy parvarish markazi tashkil etildi. Bu esa kel-gusida professional mutaxassislar tayyorlovchi kasb-hunar maktabi faoliyatini yo'lga qo'yishga asos bo'ladi. Shu bilan birga, yaqinda Toshkent, Nukus va Namangan shaharlarida ham Samarqand xalqaro salomatlik fanlari oliy maktabining filiallarini tashkil etish rejalashtirilgan.

F.FAXRIDINOV.

OGOH BO'LING, MAGISTRAL GAZ QUVURLARI!

Magistral gaz quvurlarining muhofaza zonasida xavfsizlik choralarini ko'rish g'oyatda muhim. Viloyatimizning Narpay, Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Oqdaryo, Nurobod, Payariq tumanlari hududi bo'ylab aholi punktlari va sanoat korxonalarini tabiiy gaz bilan ta'minlovchi, yuqori bosimga ega magistrat gaz quvurlari yotqizilganligini hisobga olsak, masala kundek ravshan. Shu sababli hamyurtlarimizni ogohlikka chorlaymiz.



Ekspluatatsiyaning normal sharoitini ta'minlash va quvurlarning shikastlanishiga (ularning har qanday o'tkazilishidan qat'i nazar) yo'l qo'yimaslik uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-dekabrda qaratilgan "Magistral gaz quvurlari qoidalarini tasdiqlash" to'g'risidagi 651-sonli qarori talablari hamda O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "ShMQ-02.05.06/22" - "Magistral gaz quvurlari shaharsozlik normalari va qoidalari"-ga asosan muhofaza hududlari belgilangan. Magistral gaz quvurlari tarkibiga gaz quvurlari, gaz taqsimlash shoxobchalari, kran tugunlari, kompressor stansiyalari, elektr kimyoviy himoyalash uskunalari (EXZ), yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari (LEP), aloqa texnologiyasi inshootlari va uzatkichlari, gaz quvurlari trassasi bo'ylab yotqizilgan yo'llar, gaz quvurlarini bildiruvchi va tanituvchi belgilar kiradi.

Quvurlarning muhofaza hududiga kiruvchi maydonlar yerdan foydalanuvchilardan olib qo'yilmaydi. Ular mazkur maydonda faqat magistrat gaz quvurlarini muhofaza qilish qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda qishloq xo'jaligi yoki boshqa turdagi ishlarni olib borishlari mumkin. Quvurlar yotqizilgan hududda turarjoy mavzelari, aholi punktlari, sanoat, qishloq xo'jaligi korxonalari, imoratlar (turar-joy va noturarjoy binolar) qurilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-dekabrda qaratilgan "Magistral gaz quvurlari qoidalarini tasdiqlash" to'g'risidagi 651-sonli qarori talablari hamda O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "ShMQ-02.05.06/22" - "Magistral gaz quvurlari shaharsozlik normalari va qoidalari"da tasdiqlangan me'yorlarga ko'ra, magistrat gaz quvurlarini loyixalashtirishning qurilish normalari va qoidalari bo'yicha gaz quvuridan bino yoxud inshootgacha bo'lgan eng kam masofaga qat'iy rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Quvurlarning muhofaza hududida quvurlardan me'yorida foydalanishga halaqit beruvchi yoki ularga shikast yetkazuvchi har qanday turdagi ishlar taqiqlanadi. Xususan:

- har qanday qurilish ishlarini olib borish, inshootlar tiklash;

- har xil turdagi daraxt va butalarni ekish, yem-xashak, ozuqa, o'g'it va materiallarni to'plash, pichan g'amlash, ot bog'laydigan qoziqlarni joylashtirish, chorva mollarini saqlash, baliq yetishtirish uchun uchastkalar ajratish, baliq hamda boshqa suvda yashovchi va suzuvchi hayvonlar va parrandalarni parvarishlash, jonivorlar uchun suv ichadigan hovuzlar qurish, muzni yorish va

tovush kuchaytiruvchi punktlar qopqoqlarini, lyuklarni, katod himoyasi stansiyasi, tarmoq va nazorat qiluvchi quduqlar hamda boshqa tarmoq qurilmalarini, zulf va jo'mraklarni ochish, aloqa vositalari, quvur energiya ta'minoti va telemexanikasini yoqish, o'chirish;

- belgilangan hududda turli xil chiqindi to'plamlarini yig'ish, yerga ishqorlar, tuzlar, kislota eritmalarini to'kish;

- quvurlarni buzilishlardan, yon-atrof va yaqin joylashgan hududni, transportirovka qilinadigan mahsulotni avariya natijasida to'kilishdan saqlovchi, yer osti suvini o'tkazuvchi inshootlarni, qirg'oqlarni mustahkam tutuvchi qurilmalarni buzish;

- olov yoqish yoki shunga o'xshash ochiq-yopiq olov manbalarini uyushtirish;

- himoya hududlarida sun'iy havzalar va sholi ekinlarini ekish man etiladi.

Magistral gaz quvurlari himoya qoidalarining buzilishida aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra javobgarlikka tortiladi.

Muhofaza hududi:

- quvur trassasi bo'ylab xavfsizlik yer uchastkasi ko'rinishida, quvur o'qining har tomonidan 50 metrgacha masofada shartli chiziqlar bilan chegaralangan bo'ladi;

- qishloq xo'jaligiga taalluqli yerlardan himoya maydoni quvur o'qining har tomonidan 25 metr masofada o'tadigan shartli chiziqlar bilan chegaralanadi;

- ko'p tarmoqli trassa bo'ylab chekka quvur o'qining har tomonidan 50 metr masofada o'tgan, shartli chiziqlar bilan chegaralangan yer maydoni ko'rinishidadir.

Gazdan kondensatni ajratish va saqlash uchun sig'imgar atrofida neft, kondensat va siqilgan uglevodorodlarni avariya holatida chiqarish uchun yer omborida ko'rsatilgan obyektlar maydoni chegarasida har tomoniga 50 metrdan tutashgan chiziqlar bilan chegaralangan uchastka ko'rinishida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-



kamasining 2023-yil 9-dekabrda qaratilgan "Magistral gaz quvurlari qoidalarini tasdiqlash" to'g'risidagi 651-sonli qarori talablari hamda O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "ShMQ-02.05.06/22" - "Magistral gaz quvurlari shaharsozlik normalari va qoidalari"ga asosan magistrat gaz tarmoqlari atrofida quvurlar diametriga mos holda muhofaza hududlari belgilangan.

Belgilangan xavfli hudud radiusi:

- diametri 300 mm.gacha bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga 100 metr;

- diametri 300 mm.dan 600 mm.gacha bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga 150 metr;

- diametri 600 mm.dan 800 mm.gacha bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga 200 metr;

- diametri 800 mm.dan 1000 mm.gacha bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga 250 metr;

- diametri 1000 mm.dan 1200 mm.gacha bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga 300 metr;

- diametri 1200 mm.dan yuqori bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga 350 metrgacha etadi.

Shuningdek, gaz taqsimlash shoxobchalari har tomondan himoya hududi (muhofaza hududida har qanday ishlarni olib borish taqiqlanadi) 150 metr qilib belgilangan.

Shuning bilan birgalikda, aholi e'ti-

borini qo'yidagilarga qaratmoqchimiz:

Davlatimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatiga ko'ra, aholi tomonidan tegishli mahalliy hokimiyatlar ruxsatisiz qurilib, hozirda aholi istiqomat qilib kelayotgan ayrim uy-joylar ham tegishli hujjatlar orqali egalari mulk sifatida rasmiylashtirilib berilmoqda. Lekin magistrat gaz quvurlarining xavfli hududida, boshqacha aytganda, "Qizil hudud" ichida qurilgan noqonuniy imoratlar uchun bu yengilliklar tatbiq etilmaydi va bunday imoratlar buzib tashlanishi kerak bo'ladi.

Aziz hamyurtlarimizning yer uchastkalari yoki dehqonchilik qilayotgan yer maydonlari magistrat gaz quvurlari yaqinida joylashgan bo'lsa, biror turdagi qurilish ishlarini boshlashdan oldin ushbu gaz quvurlariga xizmat ko'rsatuvchi boshqarmaga murojaat qilib, ish ko'rish tavsiya etiladi. Bu bilan fuqarolarimiz o'zboshimchalik bilan qurilgan noqonuniy imoratni buzilishi bilan bog'liq ortiqcha asab buzarlilik va keraksiz moddiy chiqimlardan xoli bo'lishadi.

Boshqarmamiz manzili: Narpay tumani Oqtosh shahri, Muqimiy mahallasi.

Telefonlar: +99866-432-41-91, +99893-172-22-47.

Qahramon FAYZULLAYEV, "Zirabuloq magistrat gaz quvurlari" boshqarmasi boshlig'i. Iskandar SHUKUROV, Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi Samarqand hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi.

RAHMAT, SIZLARGA SHIFOKORLAR!

Pensiyadaman, yoshim bir kam to'qsonda. Bu yoshda tez-tez davolanib turishimga to'g'ri kelmoqda. Bu borada uzog'imni yaqin, har dardimga shifo topayotgan Kattaqo'rg'on shahar 1-oilaviy poliklinikasi xodimlari, jumladan, poliklinikasi mudiri Alisher Jo'rayev, bo'lim mudiri Shoiri Majidova, vrachlar Mirsharof Abdurahmonov, Dilso'z Bahodirova, nevropatolog Rashid Mengboyev, oila vrachi Shoiri Suyarova, katta hamshira Aziza Nuraliyeva, oila hamshirasi Shoxista Mirzayorova va poliklinikaning boshqa xodimlaridan juda minnatdorman.

Sizlarni yaqinlashib kelayotgan 2026-yil bilan muborakkab etaman. Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, el salomatligi yo'lida amalga oshirayotgan ishlaringizda ulkan muvaffaqiyat tilayman!

Gafar BEKMURODOV, Kattaqo'rg'on shahri.

"INTELLECT ENGINEERING SAMARQAND" MCHJ
ISHGA TAKLIF ETADI!

Talablar:

- Mutaxassislik bo'yicha ish tajribasi mavjud bo'lsa, mamnuniyat bilan qabul qilinadi;
- Mas'uliyat, intizomlilik, diqqatlilik;
- Jamoada ishlash va texnik vazifalarni tezkor hal qila olish qobiliyati.

Biz taklif qilamiz:

- Rasmiy ishga joylashtirish;
- Rivojlanib borayotgan kompaniyada barqaror ish;
- Maosh kelishuvga ko'ra va suhbat natijasiga qarab belgilanadi;
- Kasbiy o'sish imkoniyati.

Boshqaruv kompaniyamizga quyidagi bo'sh ish o'rinlariga malakali mutaxassislar talab etiladi:

- Bosh muhandis;
- Santexnik;
- Elektrik;
- Keng profilli ustalar;
- Dispetcherlar;
- Mijozlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassislar.

Murojaat uchun telefonlar: +99855-703-57-57, +99855-703-57-97. Ish joyi: Samarqand shahri "INTELLECT ENGINEERING SAMARQAND" MCHJ ofisi. Mo'ljal: Samarqand shahar Davlat xizmatlari markazi.

BEKOR QILINADI

Sotuvchi Tursunova Adiba Dilmurodovna va sotib oluvchi Jurakulova Zubayda Yazdonovnalr o'rtasida Samarqand shahri Taraqqiyot (F.Xo'jayev) ko'chasi, 39-uy, 19-sonli kvartira uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasidan 2022-yil 11-dekabrda tasdiqlanib, Ksh 058165 SA blankada tuzilgan, 202201795003509 raqam bilan reestrga kiritilgan kvartira oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOTI!

Fuqaro Amriyev Maruf G'ayratovichning O'zbekiston Respublikasi shaxs guvohnomasi, xorijga chiqish pasporti (FA 1235909) va haydovchilik guvohnomasi (AF 0212075) Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatlarni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99890-469-10-10.



"ELEKTRON REALTOR" MCHJ

To'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish yo'li bilan tashkillashtiriladigan ko'chmas mulklar va ularga bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan savdoga taklif etadi!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-aprelda PQ-142 sonli qaroriga asosan "O'zsanoatqurilishbank" ATB balansida bo'lgan:

1. Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahri, "Yakkabog'" MFY, Ingichka ko'chasi, 14-"A"-uyda joylashgan ishlab chiqarish sexi binosi;
 2. Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahri, "Yakkabog'" MFY, Ingichka ko'chasi 14-uyda joylashgan omborxona va ma'muriy bino sotiladi.
- Sotish sharti va narxi bilan www.e-rieltor.uz sayti orqali tanishishingiz mumkin.
 - Savdoga qo'yilgan mulklar bilan bevosita joyiga chiqib tanishish mumkin.
 - Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar e-rieltor.uz platformasi orqali ariza berishlari mumkin.

Koll-sentr: +99855-517-22-20. Rasmiy saytimiz: www.e-rieltor.uz Xizmatlar litsenziyalangan.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Abdullayeva Ergashga (2025-yil 1-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Xasanov Sapar Ubaydullayevichga (2025-yil 16-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Turaboyeva Xayitgulga (2025-yil 4-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Xasanov Zayfinga (2024-yil 9-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Umarov Mamarajab Raxmonovichga (2010-yil 12-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi viloyat kengashi O'zXDP Nurobod tumani kengashi raisi, tuman kengashi deputati

Rayimuzoq USANOVning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

Bugun mamlakatimizda hayotiy tajribaga ega, ziyoli va ehtiromli kekxa avlod vakillari e'zozlanmoqda. Chunki ular jamiyatda muhim ma'naviy, ijtimoiy va tarbiyaviy jarayonlarda o'z o'rniga ega va xalqning tarixi, madaniyati va ma'naviyatining tirik guvohi hisoblanadi. Qolaversa, xalqning qadr-qimmatini kekxa avlodga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi.

Nuroni - jamiyatning ma'naviy ustuni

Nuroniylar - bu jamiyatning ma'naviy ustuni, milliy qadriyatlarining so'nmas manbai va yosh avlod uchun ibrat maktabi. Ular o'z hayoti, halol mehnati va insonparvarligi bilan yoshlarga namuna bo'lib, milliy va oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylashda, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhini singdirishda, yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi.

Keksalar o'tmish bilan kelajakni bog'lab turuvchi ko'priklar hamdir. Ular orqali yoshlar o'z ildizlarini, milliy an'analarni va tarixiy merosini anglaydi. Nuroniylar oilada bolalar va nabiralarga uchun tarbiyachi, mahallada aql va tajriba egasi, jamiyatda el ko'nglini birlashtiruvchi kuch sifatida xizmat qiladi. Hayotiy tajribalari orqali yoshlarning ongini boyitadi, milliy an'analarni saqlab, kelajak avlodga yetkazadi.

Yaqinda o'tkazilgan uch avlod uchrashuvida nuroniylar ilgari aholining asosiy faoliyati paxta yetishtirish bo'lgani, ta'limga e'tibor berilmagani, odamlar jismoniy mehnat bilan shug'ullangani, ilm bilan shug'ullanishga imkoniyat qoldirilmaganligini so'zlab berishdi. O'z navbatida, bugungi kunlarning qadriga yetish kerakligi xususida ham gapirdilar. Mana sizga oddiy usul bilan amalga oshirilgan tarbiya.

Shuningdek, otaxonu onaxonlar "Nuroniylar" jamg'armasi, mahalla fuqarolar yig'ini va turli jamoatchilik kengashlarida ham faoliyat yuritmoqda. Ular jamoat tashkilotlaridagi yoshlar o'rtasida ma'naviy tarbiya ishlarini olib borish orqali jamiyatda totuvlik va ahillikni ta'minlashga ko'maklashmoqda, oilalardagi mojarolarni hal etishda adolatli maslahatchi sifatida qatnashmoqda.

Nuroniylarning jamoatchilik faoliyatidagi ishtirokining yana bir ahamiyati shundaki, ular diniy qadriyatlarimizga amal qilishda ham o'rnak bo'layotir. Yoshlarning muammolarini eshitib, ularga ta'sirchan maslahatlar bermoqda.

Kekxa avlod vakillari milliy an'analarni asrash va rivojlantirishda aholining muhim qatlami, ya'ni xalqimizning urf-odatlarini, marosimlari va ma'naviy qadriyatlarining qo'riqchilari hisoblanadi. Ular milliy bayramlar, diniy marosimlar va ma'rifiy tadbirlarda faol qatnashib, yoshlarga milliy qadriyatlar orqali iftixor va Vatanga sadoqat tuyg'usini singdiradi.

Nuroniylar - jamiyatda barqarorlik va totuvlikni ta'minlaydigan, nizolarni hal qilishda, maslahat va muvosiqlashda muhim rol o'ynaydigan avlod. Zero, ular aql bilan so'zlaydi, hissiyotga berilmaydi, hayotiy tajribaga tayangan holda qaror chiqaradi. Shu bois nuroniylarning so'zi ko'pincha hukm o'rnida bo'ladi. Shuning uchun nuroniylar xalqning ma'naviy g'aznasi, milliy an'analarning asraguvchisi va yosh avlodning yo'l boshchisi. Ularga hurmat ko'rsatish, ehtirom bilan munosabatda bo'lish - bu nafaqat insoniy burch, balki milliy qadriyatimizdir.

Mamayunus PARDAYEV,
SamiSI professori.



Bolaligimdan tug'ilib o'sgan qishlog'imning tarixini o'rganishga qiziqaman. Afsuski, ko'p hollarda savollaringga javob topolmayman. Hatto darsliklarda ham, kutubxonadagi tarixiy kitoblarda ham ma'lumot kam.

Qishlog'imiz oqsoqoli G'aybullabob o'z yoshida bo'lsa ham xotirasini kuchli. Qariyb 50 yil maktabda o'qituvchilik qilgan. O'tgan asrda bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni juda yaxshi eslaydi.

- Bugungi Kattaqo'rg'on tumani hududi 1929-yillarda Qoradaryo tumani deb atalib, markazi Payshanba qo'rg'onchasi bo'lgan, - deydi G'aybullabobo.

- Tarkibiga o'zimizdan tashqari Ishtixon

Qishlog'imizning tirik tarixi

va Oqdaryoda joylashgan yuzlab qishloqlar ham kirgan. Ishtixonga olib boruvchi yo'lni Oqdaryo daryovotidan ot aravalarida tosh tashib kelib ta'mirlaganmiz. Keyinchalik Samarqand shahridan chiqqan 1,5 tonnalik rezina g'ildirakli "polutorka" mashinalari Loyish, Shayxlar, Ishtixon, Payshanba qishloqlari orqali Kattaqo'rg'on shahrigacha qatnay boshladi. Haydovchilarning barchasi ruslar, mahalliy aholi orasidan haydovchilar yo'q edi. Bu yo'l atrofida juda ko'p ko'llar bo'lib, odamlar o'tib bo'lmas chakalakzor va qalin daraxtzorlardan iborat edi. Lekin qishloqlar soni kam bo'lib, aholi ham siyrak va tarqoq holda yashardi.

Aholi sonini ko'paytirish maqsadida hozirgi Qo'ng'iro't mahallasidagi Yakkachinor qishlog'i o'rnida bir maydoncha joy chakalakzoridan tozalaniib, hashar yo'li bilan 4 xonali kichik maktab va aralash mollar do'konlari qurildi. Asta-sekin aholi ko'chib kela boshlagach, ikki xonali uyga Payshanba qishlog'ida yashovchi boshlang'ich sinf o'qituvchisi G'aybullabobo Ubaydullayevni oilasi bilan ko'chirib olib kelishadi. Yosh o'qituvchiga dars o'tishi uchun So'g'ottepa qishlog'ining o'n

lar soni kam bo'lib, aholi ham siyrak va tarqoq holda yashardi.

nafarga yaqin turli yoshdagi bolalarini yig'ib berishadi. Kekhasi esa kunduzi dalada mehnat qilayotgan katta yoshdagi aholi vakillariga maktabda saboq bera boshladi. Unga Toshkent va Samarqand shaharlaridagi maktablarning yuqori sinf o'quvchilari ham yordam berishdi. G'aybullabobo dars berish bilan birga maktabning ham qorovuli, ham bog'boni bo'lib ishlagan ekan.

Mening bobom Qahramon Namozov ham oliy ma'lumotli bo'lib, Tojikistonning Panjikent shahrida joylashgan o'qituvchilar tayyorlash oliy maktabida o'qigan. Keyinchalik u ham G'aybullabobo bilan birgalikda maktablarda dars bergan.

Aminaxon KOMILJONOVA,
Samarqand iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi.

KOFIRQAL'A PANNOSI

Kofirqal'a shaharchasi Darg'om kanalining chap qirg'og'ida, Afrosiyobning janubiy tomonida, Samarqanddan 18 kilometr janubda joylashgan. Shaharning umumiy maydoni 16 gektar bo'lib, ark, shahriston va rabotdan iborat. Ark kvadrat shaklida bo'lib, o'lchamlari 76X76 metr, balandligi 25 metrni tashkil etgan. Shahriston ham to'rtburchak shaklida bo'lib, 360x360 metr o'lchamdan iborat bo'lgan. Rabotning katta qismi hozirda ekin maydoniga aylantirilganligi uchun uning aniq hajmi noma'lum. Ushbu arxeologik yodgorlik 1991-yildan buyon o'rganilmoqda.

Bu yerda o'zbek arxeologlari dastlabki qazishma ishlarini olib borgan va keyinchalik O'zbekiston-Italiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi o'tkazilgan. 2017-yildan boshlab O'zbekiston-Yaponiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan qazishma ishlari olib borilgan. Qazishma ishlari davomida Kofirqal'aning birinchi qurilish davri - VII-VIII asrlarga oid yog'och pan-no topilgan. Ushbu panno Sug'd san'atining noyob namunasi hisoblanadi. Panno ikkita keng va qalin taxtani temir mixlar bilan o'zaro birlashtirishdan hosil bo'lgan. Pannoning sirtida har xil liboslarda, qo'llariga turli xil asboblari, buyumlar va sovg'a-salomlar ushlab olgan odamlarning shakllari o'yib ishlangan. Mazkur kompozitsiyaning asosiy syujeti - ma'budaga sig'inish, sovg'a-salomlar ehsos qilish sahnasidan iborat. Unda 46 ta personaj tasvirlangan.

Pannoning yuqori qismida yotib olgan sher ko'rinishidagi oltin taxt ustida ma'buda Nana tasvirlangan. Ma'buda boshida qanotli toj, bir qo'lida esa aso, ikkinchi qo'lida qandaydir buyumni ushlab turibdi. Shuningdek, pannoda marosim paytida "Avesto" muqaddas kitobidan madhiyalarni musiqa jo'rligida kuylayotgan sozandalar va ularning musiqa asboblari aks ettirilgan. Sozandalarning qo'llarida o'sha davrda Sug'dda keng tarqalgan chiltor, ud, qo'bizcha, nog'ora, sibizg'a kabi musiqa asboblari mavjud. Ushbu musiqa asboblarning aksariyati Sug'd sozandalari bilan birga Buyuk ipak yo'li bo'ylab Xitoy, Yaponiya va Koreya kabi davlatlarga borgan va u yerlarda mashhur bo'lgan.

Aytish joizki, Yaponiyaning Nara shahridagi qadimgi ibodatxonada VII-VIII asrlarda yapon imperatoriga keltirilgan qimmatbaho sovg'alar kolleksiyasida ikkita musiqa asbobi ham saqlanayotgan bo'lib, yapon olimlari shu vaqtga qadar ushbu musiqa asboblari qayerdan keltirilganligi xususida ma'lumotga ega bo'lmagan. Kofirqal'adan topilgan pannodagi tasvirlar orqali ular o'zlarida saqlanayotgan musiqa asboblari bizning mamlakatimiz hududlaridan borib qolganligini kashf etdilar. Kofirqal'adan topilgan noyob panno 2022-2024-yillar davomida Fransiyaning Luvr va Buyuk Britaniyaning Britaniya muzeylarida namoyish etildi.

To'liq BO'RIYEV,
Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tarix bo'limi boshlig'i.



Savobmi yoki isrof

Bugun televizorda, ijtimoiy tarmoqlarda, gazetalarda, qolaversa, mahallalardagi suhbatlarda bir masala haqida gap ketmoqda: "To'ylardagi isrofgarchilik, kim o'zar, ortiqcha hasham va ma'nosiz tantanalarni qisqartirish zarur". Bu haqda har kuni eshitamiz, o'qiymiz, mulohaza qilamiz. Afsuski, bu mulohazalar amalda o'z ifodasini topmaydi.

Ba'zilar to'y boshlash uchun hukumat tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning kuchga kirishini kutib turibdi, ayrimlar esa "shungacha o'tkazib olaylik", deb shoshayapti. Ayniqsa, ba'zi qaynonalar kelinning qarindoshlari olib keladigan sovg'alarga qiziqib, to'yni tezlashtirishga urinayotgan holatlar ham uchramoqda.

Dugonamning uch nafar farzandi bor. Ular anchadan beri shaharda ijarada yashaydi. Turmush o'rtog'ining opasi to'y qiladigan bo'ldi. Eri tog'a sifatida opasining to'yi uchun pul yig'di. Uch aka-uka birikib, opa, pochcha va jiyanlarga sarpo qilishdi - to'rt faslga mos kiyimlar, tilla taqinchoqlar, bolalarga velosiped, o'yinchoqlar, uy uchun muzlatkich, kir yuvish mashinasi, mikroto'liqinli pech, gilam, ko'rpa-to'shak... Hatto to'y uchun novvos ham berishdi. To'qqiz tog'ora qilib taomlar, shirinliklar, meva-chevalar, sovg'alar, shampun va sovungacha jo'natishdi.

Oqibatda bir necha oylik mehnat va yig'ilgan mablag' "kim o'zar" degan nom ostidagi mantiqsiz tantanaga sarf bo'ldi. O'zi amallab kun kechirayotgan dugonamning oilasi qarzi yukini yelkasi-ga oldi. Bolalarning ehtiyoji qisqardi, uydin baraka qochdi.

Ko'pincha "el nima deydi", "odamlar ko'radi", "odat shunday", degan fikrlar bilan imkoniyatimizdan ortiq xarajat qilamiz.

Hozir davlatimiz ham, jamiyatimiz ham isrofgarchilikni kamaytirish, to'y va tadbirlarni ixcham, mazmunli o'tkazish haqida ta'kidlayapti. Bu bekorga emas. Chunki har bir ortiqcha tantana ortida zahmatli mehnat, katta xarajat yotadi.

Shunday ekan, o'zingizga savol berib ko'ring: "Men qilgan shuncha mehnat va xarajat - savobmi yoki isrof?"

Dilnoza FAYZULLAYEVA.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 788 nusxada chop etildi. Buyurtma 573. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

Gazetaning navbatdagi soni 2025-yil 13-dekabr, shanba kuni chop etiladi.

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda